

Journal of Social Research in Uzbekistan**JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:
<https://topjournals.uz/index.php/jsru>

**POSSIBILITIES OF USING FUTURE TEACHERS TO DEVELOP THEIR PEDAGOGICAL INTENTIONS BASED ON A COLLABORATIVE APPROACH*****Shokhjakhan G. Khasanov****independent researcher**Fergana State University**Fergana, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: collaboration, pedagogical intention, humanization, creativity.

Received: 27.06.24

Accepted: 29.06.24

Published: 01.07.24

Abstract: This article discusses the effective use of opportunities to develop future teachers' pedagogical intentions based on a collaborative approach.

БО'ЛАЈАК О'ҚИТУВЧИЛАРНИ КОЛЛАБОРАТИВ ЙОНДАШУВ АСОСИДА ПЕДАГОГИК ИНТЕНСИЯЛАРИНИ РИВОЈЛАНТИРИШДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ***Shoxjaxon G. Xasanov****mustaqil tadqiqotchi**Farg'onat davlat universiteti**Farg'onat, O'zbekiston***МАҚОЛА НАҚИДА**

Kalit so'zlar: kollaboratsiya, pedagogik intensiya, gumanizatsiya, kreativlik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Bo'lajak o'qituvchilarni kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirishdan foydalanish imkoniyatlaridan samarali foydalanish xususida fikr yuritiladi.

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ СВОИХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАМЕРЕНИЙ НА ОСНОВЕ СОВМЕСТНОГО ПОДХОДА***Шохджахан Г. Хасанов****независимый исследователь**Ферганский государственный университет**Фергана, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: сотрудничество, педагогическое намерение, гуманизация, творчество.	Аннотация: В данной статье рассматривается эффективное использование возможностей развития педагогических намерений будущих учителей на основе совместного подхода.
---	--

KIRISH

O‘zbekistonning yangi rivojlanish bosqichida islohotlar jarayonida har bir soha va yangilanayotgan tuzilmaga kreativ yondashish va hakmorlikda ishlarni tashkil etish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Chunki yangilanayotgan jamiyat uchun ijodiy hamkorlik eng ahamiyatli xususiyat bo‘lib hizmat qiladi. Buning uchun «yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularni ish bilan ta’minlash, zamonaviy bilim va kasb-xunarlarni egallashi uchun sharoit yaratish, qobiliyat va iste’dodini ro‘yobga chiqarish» bilan birga bu ishlar uchun hukumat tomonidan munosib shart-sharoit yaratish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. So‘nggi yillarda mamlakatimiz ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar o‘quv jarayonini demokratlashtirish, insonparvarlashtirish asosida uni shaxsga yunaltirish uchun ham zamin hozirladi. Ta’lim jarayonini sifat bosqichiga ko‘tarish talab qilinayotgan bugungi kunda uni to‘laligicha o‘quvchi shaxsiga yunaltirish, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi faol hamkorlikni amalga oshirish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Bunda pedagogika fani bilan ta’lim muassasalari orasida hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsga yunaltirilgan ta’lim nazariyasi pedagogik jamoa va har bir o‘qituvchining faoliyatida o‘z aksini topishi kerak. XXI asrga kelib ta’lim tizimi oldiga yangicha shaxsiy sifatlarga ega bulgan o‘quvchi, ya’ni fenomen (favqulodda talentli shaxs)ni shakllantirish vazifasi qo‘yildi.

ASOSIY QISM

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish metodikasi mazmuniga doir ilmiy izlanishlarni tadqiq etgan holda uning imkoniyatlarini o‘rganish uchun avvalo kollaborativ yondashuv tushunchasining mazmun-mohiyati, olimlar tomonidan ishlab chiqilgan izohlarni o‘rganish, tizimlashtirish va shaxsiy yondashuvni ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Kollaborativ yondashuvga asoslangan shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini tashkil etish bugungi kunda ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan ijtimoiy buyurtmaning asosini tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda, o‘quvchining o‘z-o‘zini rivojlantirish, fan-texnika yutuqlarini egallahsha bulgan ehtiyojini qondirish, o‘qitish jarayonida unga insonparvar yondashuv zarurligini talab kilmokda. O‘quv jarayonini tashkil etishga insonparvar yondashuvning asosiy vazifasi o‘quvchida muayyan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni inkor qilmaydi, balki uning vazifalarini kengaytiradi va boyitadi.

Kollaborativ o‘qitish g‘oyalarini novator-pedagoglar (Sh.A. Amonashvili, S.N. Lisenko, I.P. Volkov, V.F. Shatalov, Y.N. Ilin, va boshqalar) pedagogik jarayon ishtirokchilari (o‘qituvchi va talabalar) o‘rtasidagi insonparvarlik tamoyiliga asoslangan o‘zaro munosabatlар tashkil etishini ta’kidlab o‘tadilar. Hamkorlik pedagogikasi uchun konseptual ahamiyatga ega qoidalar A.Avloniy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, J.J.Russo, Y.Korchak, K.Rodjers va boshqalarning pedagogik qarashlarida o‘z ifodasini topgan.

Yuqorida fikr va g‘oyalari keltirilgan olimlar kollaborativ o‘qitish g‘oyalarini tadqiq etishda katta hissa qo‘sghan va ularning nazariyalari zamonaviy ta’lim amaliyotida keng qo’llaniladi. Ular ta’lim jarayonida o‘quvchilarning hamkorligi va faol ishtirokini rag‘batlantirishning ahamiyatini ko‘rsatib bergenlar.

OTMdagi o‘qish jarayonida psixologik qulaylik, o‘qituvchi va talabaning o‘quv va sinfdan tashqari ishlardagi insonparvarlik munosabatlari talabaning kayfiyatiga sezilarli ta’sir qiladi, u OTMdagi insonparvarlik muhitidan qoniqish hosil qiladi, ustozga bo‘lgan ishonchi ortadi, tarbiyaviy ta’sir samaradorligi oshadi. Bizning fikrimizcha, tadqiqotimiz muammosi ma’naviy, gumanitar va estetik qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uni hal qilishda quyidagi pedagogik tamoyillar asos bo‘la oladi:

1. Gumanizatsiya (insonparvarlik) tamoyili. Bu talaba shaxsining qiziqish yo‘nalishlari, vazifa va istiqbollariga e’tibor qaratishni, uning qobiliyatları va imkoniyatlari doirasini kengaytirishni, ijtimoiy aloqlari va kasbiy harakatlari uyg‘unligini ta’minlashni anglatadi.

2. Hamkorlik tamoyili. Hamkorlik sub'ektlari o‘zaro munosabatlari jarayonida o‘zaro bir-birini tushunish, mazmunli ma'lumotlar almashinuviga erishishga harakat qiladi. Hamkorlikka erishish yo‘llari sifatida bu yaxshi tashkil etilgan talabalarning o‘zini o‘zi boshqaruv tizimi, insoniy munosabatlar madaniyati, OTMdagi o‘qish va hayotini boshqarishning demokratik uslubini keltirish mumkin.

3. Vorislik tamoyili. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy rivojlanishidagi vorisiylilikning o‘ziga xos xususiyatlarini talabalar o‘rtasida milliy va umuminsoniy, axloqiy, ijtimoiy va madaniy me’yorlarni faol o‘zlashtirishga psixologik ko‘rsatma berish tarzida ifodalash mumkin.

4. Kreativlik (ijodkorlik) tamoyili. Kasbiy-pedagogik faoliyat rivojini ijodkorlik komponentisiz shakllantirish mumkin emas. Har qanday ijodiy faoliyat ijtimoiydir, chunki uning natijalari jamiyatni va uning vakillarini yaxshilashga qaratilgan. Ijodkorlik jarayonida mustaqillik, shaxsning faolligi, dialektik fikr yuritish va standart munosabatlarga muvofiq harakat qilish kabi fazilatlar rivojlanadi.

Hamkorlik pedagogikasining to‘rtta asosiy yo‘nalishi mavjud bo‘lib, bular, shaxsiy-insonparvar yondashuv; didaktik faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi majmua; tarbiya konsepsiysi; atrof-muhitni pedagogizatsiyalash.

Shaxsiy-insonparvar yondashuv: shaxsga yangicha karash ta’lim berishning maksadi sifatida shaxsga yunaltirilganligi; pedagogik mulokotni insonparvarlashtirish va demokratiyalash; bolalarga muxabbat, ularning takdiriga qiziqish; boladagi umidli ishonch; hamkorlik, muloqot mahorati; to‘g‘ridan-to‘g‘ri majbur qilishni bekor qilish; ijobiy rag‘batlantirishning muximligi; bolalardagi kamchiliklarga sabrli bo‘lish; o‘qituvchi va talaba huquqlarini tenglashtirish; bolaning erkin tanlash xuquqi; xato qilish huquqi; shaxsiy qarashlarga bo‘lgan huquq; bola xuquqlari xakidagi konvensiyaga amal qilish; o‘qituvchi-talaba munosabatlari usuli: taqiklash emas, yunaltirish; boshqarish emas, birgalikda boshqarish; majburlash emas, ishontirish; buyruq berish emas, tashkillashtirish; chegaralamaslik, erkin tanlashni yulga qo‘yish; zamonaviy sharoitda natijalarga olib kelmaydigan to‘g‘ri dan-to‘g‘ri majburlashdan metod sifatida voz kechish; majburlovsiz, ishonchga asoslangan talabchanlik; tug‘ma kizikuvchanlikni xisobga olib o‘qitish; muvaffaqiyatsizlikka sabab bo‘ladigan majburiy istakni almashtirish; bolalarning mustakilligi va mustakil faoliyatini urnatish; jamoa orkali bevosita talablarning qo‘llanishi; individual yondashuvning yangi talkini; o‘rtacha o‘qiydigan talabalarga yo‘naltirishni bekor qilish; shaxsning eng yaxshi sifatlarini izlash; shaxsni psixologik-pedagogik tashxis etish (qiziqishlari, qobiliyatlariga yo‘nalganlik, fikrlash jarayonlarining o‘ziga xosligining qo‘llanilishi; o‘quv-tarbiya jarayonida shaxsning o‘ziga xosliklarini xisobga olish;

Didaktik faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi majmua: ta’lim mazmuniga shaxs rivojlanishining mazmuni sifatida qaralishi; bilim, kunikma va malakalarni xosil qilish va umumlashgan fikrlashga o‘rgatish; fanlarini integratsiyalash, umumlashtirishga o‘tilishi; ta’limning variativligi va tabaqareshganligi; o‘rgatishning ijobiy rag‘batlaridan foydalaniishi.

Tarbiya konsepsiysi: bilimlar maktabini tarbiya mакtabiga almashtirish; barcha tarbiyaviy tizimlar markazida talaba shaxsini qo‘yish; tarbiyaga insonparvar yondashuv, umuminsoniy kadriyatlarni shakllantirish; bolaning ijodiy kobiliyatlarini, uning individualligini rivojlantirish; milliy va madaniy an’analarni tiklash; individual va jamoaviy tarbiyani xisobga olish.

Atrof-muxitni pedagogizatsiyalash: Oila, maktab va ijtimoiy borlik o‘sib kelayotgan avlodni shakllantiruvchi muxim ijtimoiy institutlar sifatida aks etadi. Natijalar barcha uchta tarbiya manbalarining birgalikdagi xarakatida aniqlanadi. Bundan bolalarni ximoya qiluvchi ijtimoiy va davlat institutlariga ta’sir etuvchi ota-onalar bilan hamkorlik, omilkor boshqarish g‘oyasi kelib chiqadi.

**Kollaborativ yondashuvdagi konseptual g‘oyalarni amalga oshirishning asosiy yo‘llari
va vositalari**

Yo‘llari	Vositalari
O‘qitish	Ta’lim olishga bo‘lgan qiziqish, o‘qishga majbur qilmaslik, nazariy materiallami modul-blok ko‘rinishida taqdim etish, o‘quv materiallarni doimiy tushuntirib borish va mustahkamlash, doimiy, tizimli qayta aloqa: o‘quv holatlaridagi ziddiyatlarga yo‘l qo‘ymaslik, ta’lim oluvchilar uchun sinf xonalaridagi qulaylik, variativ va ko‘p bora takrorlash orqali bilimlami egallah: bilimlami baholashning variativligi, guruhlarda ishlash, o‘quv faniga, predmetiga qiziqish
Tarbiyalash	Jamoaviy ijodiy faoliyat, mehnat, mehnatga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya, insonparvarlik va bag-rikenglik ruhidagi munosabat, bolalar va yoshlar ijtimoiy harakatlariga birlashish, ijodiy topshiriqlami bajarish, nashrlar tashkil etish, kundaliklar yuritish, muzeylar, teatrlar va boshqa ijtimoiy muassasalar bilan birgalikda faoliyatlarini muvofiqlashtirish, ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanish
Mustaqil ta’lim-tarbiya olish, mustaqil rivojlanish	Ichki qiziqish. o‘z-ofzini nazorat qilish, o‘z ish natijalarini baholay olish va o‘z faoliyatini nazorat qilish. o‘quv-o‘zlashtirish va tarbiya jarayonini mustaqil belgilash
Ta’lim beruvchilar bilan ota-onalarning hamkorligi	Ota-onalar majlislari, ochiq eshiklar kuni, darslarga tashrif buyurish, psixologik maslahatlar, ota-onalar kengashlarini tashkil etish. ota-onalar huzurida ta’limberuvchilar va ta’lim oluvchilar ijodiy hisobotlarini tinglash, ota-onalami darsdan tashqari tadbirlarga taklif etish
O‘zini o‘zi boshqarish organlari (mahalla) va ta’lim muassasalari hamkorligi	Ota-onalar majlislari. ochiq eshiklar kuni. darslarga tashrif buyurish. psixologik maslahatlar. ota-onalar kengashlarida ishtirop etish. ta’lim beruvchilar va ta’lim oluvchilar ijodiy hisobotlarini tinglash. darsdan tashqari tadbirlami tashkil etishda ishtirop etish. mehnat, mehnatga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya, insonparvarlik va bag-rikenglik ruhidagi munosabatni shakllantirish
Jamoat tashkilotlari va ta’lim muassasalari hamkorligi	Ota-onalar majlislari, ochiq eshiklar kuni, darslarga tashrif buyurish, psixologik maslahatlar, ota-onalar kengashlarida ishtirop etish, ta’lim beruvchilar va ta’lim oluvchilar ijodiy hisobotlarini tinglash, darsdan tashqari tadbirlami tashkil etishda ishtirop etish, jamoaviy ijodiy faoliyat, mehnat, mehnatga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya, insonparvarlik va bag-rikenglik ruhidagi munosabat, bolalar va yoshlar ijtimoiy harakatlariga birlashish, ijodiy topshiriqlami bajarish, muzeylar, teatrlar va boshqa ijtimoiy muassasalar bilan birgalikda faoliyatni muvofiqlashtirish
Huquq-tartibot organlari va ta’lim muassasalari bilan hamkorlik	Ota-onalar majlislari, ochiq eshiklar kuni, darslarga tashrif buyurish, jinoyatchilikni oldini olish (profilaktika), ota-onalar kengashlarida ishtirop etish, ta’lim beruvchilar va ta’lim oluvchilar bilan muntazam suhbatlar o‘tkazish, darsdan tashqari tadbirlami tashkil etishda ishtirop etish, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya, insonparvarlik va bag-rikenglik ruhidagi munosabatni shakllantirish

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari va xalq ta’limi muassasalari bilan hamkorlik	Ota-onalar majlislari, ochiq eshiklar kuni, darslarga tashrif buyurish, kasb-hunarga yo‘llash, psixologik maslahatlar, ota-onalar kengashlarida ishtirok etish, kasb-hunarga yo‘llash bo‘yicha darsdan tashqari tadbirlami tashkil etish, jamoaviy ijodiy faoliyat, mehnat, mehnatga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya, insonparvarlik va bag‘rikenglik ruhidagi munosabat, bolalar va yoshlar ijtimoiy harakatlariga birlashish
Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash	Pedagogik sinflarni, guruhlarni tashkil etish, talabalarni bevosita pedagogik faoliyat bilan tanishtirish, ilg‘or, tajribali pedagoglar faoliyatini o‘rganish, hamkorlik pedagogikasi asoslari bilan tanishtirish

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullayeva Sh.A. Hamkorlik pedagogikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2017. – 178 bet.
2. Dilova N.G‘. Boshlang‘ich ta’limda o‘zaro hamkorlik muhitini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)... diss. – Nukus, 2018. – 152 s.
3. Бараковская Н.И. Воспитание отношений сотрудничества между школьниками 5-7 классов на основе гуманистических ценностей методами педагогического консультирования – Екатеринбург, 1998. – 37-б.
4. Коротаева Е.В. Педагогическое взаимодействие: становление дефиниции // Педагогическое образование в России. – 2007. – №1. – С. 73-83
5. Ларионова И.А. Ситуация успеха в учебной деятельности как фактор развития отношений сотрудничества в системе учитель-ученик: дис. кан. пед. наук. – Екатеринбург, 1996. – 127 с.
6. Slavin R.E. Student teams and comparison among equals: Effects on academic performance and student attitudes. / R.E. Slavin. – Journal of Educational Psychology, vol. 70, 1978. – P. 532-538.